



VIRTUAL MAKONDA FUQAROVIY HUQUQIY MUNOSABATLARNI TARTIBGA SOLISH MASALALARI

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti dotsenti

Mubin Nasullaev

Annotatsiya: Maqolada virtual makonda fuqaroviy huquqiy munosabatlarni tartibga solishning ilmiy jihatdan tushunchasi yoritib berilgan. Shaxsan bu haqida mahalliy va xorijiy mualliflarning ilmiy asarlarida bayon qilingan fikr-mulohazalari ko'rsatilib, ular huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Mavzuga bag'ishlangan huquqshunos olimlarning ilmiy asarlaridan foydalanilgan holda, muallifning shaxsiy o'z fikrlarini ifodalanib, hozirgi davrda virtual dunyodagi fuqaroviy munosabatlarni tartibga solinishiga global yondashuv bo'lishligini ta'kidlangan. Maqolada muallif mavzu yuzasidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan va kelajakda qilinishi kutilayotgan ish faoliyatlarni amalga oshirishga oid ilmiy va amaliy taklif va xulosalarni ko'rsatgan.

Kalit so'zları: raqamlı davr, virtual makon, elektron to‘lovlar, onlayn xizmatlar, kibermakon, kiberhuquq, blokcheyn, sun’iy intellekt, kibersudlar, kriptografiya, kiberxavfsizlik, robototexnika, kiberjinoyat, global xavf, raqamlı xavfsizlik.

Zamonaviy raqamlı davrda virtual makon fuqaroviy huquqiy munosabatlarning yangi shakllarini vujudga keltirdi. Bugungi kunda raqamlı iqtisodiyotning rivojlanishi, onlayn xizmatlar, elektron to‘lovlar va blokcheyn texnologiyalari fuqaroviy huquqiy munosabatlarning yangi ko‘rinishlarini yuzaga keltirmoqda. Bu esa huquqshunos olimlar tomonidan ushbu sohadagi huquqiy munosabatlarni chuqur o‘rganishni talab etmoqda. Virtual makondagi fuqaroviy huquqiy munosabatlarni tartibga solish bo‘yicha taniqli huquqshunos olimlar



bunga munosabat bildirib, o‘z fikr-mulohazalari va qarashlari bilan bu masalalarni tahlil qilmoqdalar.

Jumladan, K.A.Ivanova, Madi Miltikbaev va D.D.Shtodinalar kibermakonni xalqaro huquq nuqtai nazaridan tahlil qilib, uning asosiy xususiyatlarini belgilashga harakat qildilar. Ularning fikricha, kibermakondagi huquqiy bo‘shliqlar global xavflarga olib kelishi mumkin va bu sohada universal tushuncha hamda xalqaro huquqiy normalarni ishlab chiqish zarur¹ deb hisoblaydilar.

Bunday tahlilga qaraganda, mazkur masala xalqaro tashkilotlar tomonidan markazlashtirilgan yondashuv asosida hal qilinishi lozimligi ko‘rinadi. Chunki, davlatlar o‘z milliy qonunlariga tayanib, kibermakonni tartibga solishga harakat qilsa ham, bugungi globallashgan dunyoda bu yetarli emas. Barqaror va samarali xalqaro kiberhuquqiy tizim yaratilishi lozim deb hisoblanadi.

Bu yo‘nalishda virtual makonda fuqaroviylar huquqiy munosabatlarni tartibga solish xalqaro darajada integratsiyalashgan, barqaror va samarali huquqiy tizimni talab etadi. Bunday tizimni shakllantirishda **xalqaro kiberhuquqiy normalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi**. Barqaror kiberhuquqiy tizim yaratish uchun davlatlar o‘rtasida huquqiy hamkorlik va yagona me’yoriy baza shakllantirilishi lozim. Bunda BMT, Yevropa Ittifoqi, ShHT va boshqa xalqaro tashkilotlar ishtirokida kibermakonda huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi xalqaro konvensiyalar ishlab chiqilishi talab etiladi.

Shuningdek, **milliy qonunchilikni xalqaro me’yorlarga moslashtirib**, davlatlar o‘z milliy kiberhuquqiy qonunchiligini xalqaro standartlar va tamoyillar

¹ Иванова К.А., Милтикбаев М., Штодина Д.Д. "Киберхукуқнинг халқаро ҳуқуқий асослари" – Москва: Юрайт, 2022.



asosida takomillashtirishi lozim. Bu raqamli iqtisodiyot va fuqarolarning kiberhuquqlarini himoya qilish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu ishda kiberxavfsizlikni ham kuchaytirish dolzarb masalalardan biridir. Chunki, virtual makondagi huquqbazarliklarga qarshi samarali choralar ko‘rish uchun davlatlar va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish zarur bo‘ladi. Bu kiberhujumlar, shaxsiy ma’lumotlarning himoyasizligi va onlayn firibgarlikka qarshi huquqiy choralar ishlab chiqishga yordam beradi.

Shu bilan birga, fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirishni ham unutmaslik kerak. Barqaror kiberhuquqiy tizimni amalga oshirishda jamiyatning huquqiy savodxonligi muhim ahamiyatga ega. Fuqarolar o‘z raqamli huquqlarini bilishi va himoya qilishi uchun ta’lim tizimi orqali huquqiy bilimlarni oshirishlari lozim.

Asosiy masalalardan biri bo‘lgan **innovatsion texnologiyalar orqali huquqiy nazoratni kuchaytirish ham muhim rol o‘ynaydi.** Bunda blokcheyn, sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili kabi innovatsion texnologiyalar yordamida huquqiy munosabatlarni raqamli tartibga solish samarali amalga oshirilishi mumkin. Davlatlar ushbu texnologiyalarni qonunchilikka moslashtirgan holda joriy qilishi lozim.

Xalqaro kibersudlarni tashkil qilish e’tibordan chetda qolmasligi sababli, kiberhuquq sohasidagi nizolarni hal qilish uchun xalqaro kibersudlar va arbitraj mexanizmlari yaratilishi lozim. Bu transmilliy huquqbazarliklarni samarali tartibga solishga yordam beradi.

Huquqnunos olimlar kiberhuquq va fuqarolik huquqi o‘rtasidagi munosabatlarni chuqur tahlil qilib, ularning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatmoqdalar. Abdurahmonning fikricha, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va elektron



dalillarni qonunchilikka kiritish hali to‘liq amalga oshmaganligi sababli, fuqarolarning raqamli huquqlari aniq tartibga solinishi kerak² deb ta’kidlaydi.

Bu fikrlarga munosabat bildirmoqchi bo‘lsak, bugungi kunda aksariyat davlatlarda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish mexanizmlari mavjud, biroq ularning amalda qo’llanilishida ko‘plab muammolar mavjud. Shuning uchun huquqiy himoya tizimini takomillashtirish uchun davlat va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish lozim. Bu yo‘nalishda qanday ishlarni amalga oshirish kerak?

Birinchidan, huquqiy himoya tizimini takomillashtirish va kiberhuquqiy munosabatlarni samarali yo‘lga qo‘yish uchun davlat va xususiy sektor o‘rtasida **qonunchilik va texnologiyani moslashtirish**, davlat organlari va xususiy IT-kompaniyalar hamkorlikda kiberhuquqga oid me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqishlari va ularni texnologik o‘zgarishlarga moslashtirib borishlari zarur.

Ikkinchidan, kiberxavfsizlikni mustahkamlash kiberhujumlarga qarshi davlat va xususiy sektor hamkorlikda kiberxavfsizlik standartlarini joriy qilishi, axborot almashish tizimini takomillashtirishi va kiberhujumlarga javob berish mexanizmlarini ishlab chiqishi lozim.

Uchinchidan, huquqbazarliklarga qarshi tezkor choralar ko‘rilishi, davlat va xususiy kompaniyalar o‘rtasida onlayn firibgarlik, kiberhujumlar va shaxsiy ma’lumotlar himoyasini ta’minlash borasida operativ hamkorlik yo‘lga qo‘yilishi kerak.

To‘rtinchidan, yuqorida qayd etilganidek, ta’lim va huquqiy savodxonlikni oshirish, bunda davlat va xususiy sektor hamkorligi orqali kiberxavfsizlikka oid

² Абдураҳмон. "Рақамли хукуқлар ва кибермакон" – Тошкент: Академнашр, 2023



huquqiy ta’lim dasturlarini joriy qilish, fuqarolar va biznes vakillari uchun treninglar tashkil etishlik nazarda tutiladi.

Beshinchidan esa, innovatsion loyihalarni moliyalashtirilishi, davlat va xususiy sektor hamkorligida kiberhuquq va raqamli xavfsizlik bo‘yicha innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirilishi zaruriyatdir.

Virtual makonda ma’lumotlar maxfiyligi va xavfsizligi bilan bog‘liq muammolarga e’tibor qaratmoqchi bo‘lsak, bu o‘rinda Li Adik Aleksandrovichning mavjud huquqiy tizimlarning raqamli texnologiyalar rivojlanishiga javob berolmayotganligini ta’kidlaganligi, yangi strategiyalar va huquqiy normalarni ishlab chiqish kerak³ligi to‘g‘risida fikrlar bildirgan.

Uning qayd etilgan fikri yuzasidan aytish joizki, bugungi raqamli davrda ma’lumotlarning maxfiyligiga e’tibor qaratish juda muhim. Davlatlar va xususiy kompaniyalar ma’lumotlardan qanday foydalanishi haqida ochiqlikni ta’minlashi va fuqarolarning raqamli huquqlarini himoya qilishda innovatsion yondashuvlar joriy qilinishi zarurdir. Ma’lumotlardan foydalanishda shaffoflikni ta’minlashi va fuqarolarning raqamli huquqlarini himoya qilish uchun **ma’lumotlardan foydalanishda ochiqlik tamoyillarini joriy qilishda davlat** va xususiy kompaniyalar ma’lumotlar yig‘ish, saqlash va qayta ishlash jarayonlarini ochiq tarzda yuritishi kerak. Buning uchun ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik kengashlari va mustaqil auditorlar orqali nazoratni kuchaytirish yo‘li bilan amalga oshirilishi mumkin.

³ Александрович Л.А. "Киберхавфсизлик ва шахсий маълумотлар ҳимояси" – Санкт-Петербург: Наука, 2023.



Shu bilan birga fuqarolarga ma'lumotlari ustida nazorat qilish imkonini ya'ni, barcha raqamli platformalar foydalanuvchilarga shaxsiy ma'lumotlarini ko'rish, tahrirlash va o'chirish imkonini berishi kerak. Shuningdek, shaxsiy ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga berilishi yuzasidan foydalanuvchining roziligi olinishi, har bir raqamli xizmat ko'rsatuvchi kompaniya ma'lumotlar siyosati bo'yicha ochiq va tushunarli qoidalarni ishlab chiqishi, foydalanuvchilarga ularning huquqlari va xavflar haqida ma'lumot berishi maqsadga muvofiqdir.

Innovatsion texnologiyalar orqali huquqlarni himoya qilishda davlatlar va xususiy sektor blokcheyn, kriptografiya va sun'iy intellekt kabi texnologiyalardan foydalanib, shaxsiy ma'lumotlar himoyasini kuchaytirishi zarur. Masalan, blokcheyn orqali ma'lumotlarni saqlash tizimini shaffof va xavfsiz qilib yo'lga qo'yish mumkin.

Fuqarolarni xavfsizlik borasida xabardor qilish maqsadida davlatlar va xususiy sektor kiberxavfsizlik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishlikni ta'minlash uchun jamoatchilikni xabardor qilishga oid dasturlar joriy qilinishi zarur bo'ladi.

Bulardan tashqari, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish, davlatlar va xususiy kompaniyalar xalqaro kiberhuquqiy tashkilotlar bilan hamkorlik qilib, global standartlar asosida ma'lumotlardan foydalanish va himoya qilish tizimini yaratishi lozim.

Olimlardan Shmitt N.Maykl va Vixul Liyslar kibermakonda suverenitet masalasi va davlatlarning kiberhududiy huquqlarini o'rganishdi. Ular xalqaro



huquqiy hujjatlarni takomillashtirish va davlatlar o‘rtasida qo‘shma siyosat yuritish zarur⁴ligini ta’kidlaydilar.

Bunda, davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik bu borada eng muhim omillardan biri. Kibermakonning tabiatи shundayki, uning chegaralari yo‘q, shu sababli, milliy qonunlar asosida cheklangan yondashuvlar muammoni to‘liq hal qila olmaydi. Milliy qonunlar asosida cheklangan yondashuvlar raqamli huquqiy munosabatlarni to‘liq tartibga solishga to‘sinqilik qilishi mumkin. Bu muammoni hal qilish uchun **xalqaro hamkorlikni kengaytirish**, milliy qonunlar cheklangan imkoniyatlarga ega bo‘lgani sababli, davlatlar o‘zaro hamkorlikni kuchaytirib, transmilliy huquqiy mexanizmlarni shakllantirishi kerak.

Shuningdek, yagona global huquqiy me’yorlar yaratishda kiberhuquq sohasida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilib, global huquqiy standartlar ishlab chiqilishi zarur. **huquqiy tizimlarning o‘zaro integratsiyasida esa**, milliy va xalqaro huquqiy tizimlar o‘zaro muvofiqlashtirilgan holda ishlashi kerak. Bu esa, davlatlar va xususiy sektor o‘rtasida huquqiy muammolarning hal etilishini osonlashtiradi.

Virtual makonda texnologik o‘zgarishlarga mos qonunchilik yaratish davr talabi bo‘lib, bunda milliy qonunchilik doimiy ravishda texnologik rivojlanishlarga mos ravishda takomillashtirilishi, **kiberhuquq bo‘yicha ta’limni kengaytirilishi**, huquqshunoslar va davlat idoralari xodimlari uchun kiberhuquq bo‘yicha maxsus ta’lim dasturlari joriy qilinishi lozim.

Qayd etilganlar bilan birga qator huquqshunos olimlar virtual makonda bo‘layotgan munosabatlarni huquqiy tartibga solish borasida fikr-mulohazalar

⁴ Schmitt M.N., Vihul L. "Cyber Sovereignty and International Law" – Cambridge University Press, 2017.



bildirib, o‘zlarining huquqiy qarashlari bilan bunga munosabat bildirganlar. Jumladan, S.Yusupov⁵ robototexnika sohasidagi huquqiy tartibga solish masalalarini o‘rganib, bu borada yangi yondashuvlarni taklif qiladi.

Robotlar va sun’iy intellekt faoliyatini tartibga solish jarayonida nafaqat yuridik, balki axloqiy normalar ham inobatga olinishi lozim. Chunki texnologiyalar inson hayotiga chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Texnologiyalar inson hayotiga chuqur ta’sir ko‘rsatishini bir nechta jihatdan tushuntirish mumkin. Ular hayotimizning turli sohalariga, ishslash tarzimizni, ko‘nikmalarimizni va kundalik hayotimizni butunlay o‘zgartirdi.

Bandler Jon esa, kiberhuquq va kiberxavfsizlikning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qiladi. U kiberjinoyatlar va raqamli huquqbuzarliklarga qarshi huquqiy choralarni kuchaytirish zarur⁶ligini qayd etadi.

Bugungi kunda kiberxavfsizlikni ta’minalash nafaqat davlat, balki jismoniy va yuridik shaxslar uchun ham ustuvor masaladir. Fuqarolar va kompaniyalar o‘z kiberxavfsizlik darajasini oshirish uchun huquqiy bilimlarga ega bo‘lishi lozim.

Bleklous Kristina⁷ ham raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning huquqiy sohadagi ahamiyatini o‘rganadi. raqamli huquqiy mexanizmlarni joriy etishda fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy savodxonligi ham muhim o‘rin tutadi. Bunda huquqshunoslar, mutaxassislar va davlat idoralari hamkorlikda ish olib borishi lozim.

⁵ Юсупов С. "Робототехника ва сунъий интеллект: ҳуқуқий муаммолар" – Тошкент: Фан, 2023.

⁶ Bandler J. "Cyber Law and Security" – Oxford University Press, 2024.

⁷ Blacklaws C. "Digital Law and AI Regulation" – London: Routledge, 2025.



Xulosa qilib olganda, yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, virtual makonga oid huquqiy normalarni takomillashtirish talab etiladi. Bu jarayonda xalqaro hamkorlik, innovatsion yondashuv va huquqiy savodxonlik muhim ahamiyatga ega. Raqamli huquqiy mexanizmlarni samarali joriy etish, fuqarolarning raqamli huquqlarini himoya qilish va kiberxavfsizlikni mustahkamlash uchun har tomonlama kompleks yondashish lozim. Bu jarayonda fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish, qonunchilikni zamonaviylashtirish, innovatsion texnologiyalarni ishlatish va davlat-xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikning samarali mexanizmini shakllantirish muhimdir. Bu yo'ldagi barcha tashabbuslar fuqarolarning raqamli huquqlarini to'liq himoya qilishga, va ularning raqamli muhitda xavfsiz va ishonchli faoliyat yuritishlariga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ivanova K.A., Miltikbaev M., Shtodina D.D. "Kiberhuquqning xalqaro huquqiy asoslari" – Moskva: Yurayt, 2022.
2. Abdurahmon. "Raqamli huquqlar va kibermakon" – Toshkent: Akademnashr, 2023
3. Aleksandrovich L.A. "Kiberxavfsizlik va shaxsiy ma'lumotlar himoyasi" – Sankt-Peterburg: Nauka, 2023
4. Schmitt M.N., Vihul L. "Cyber Sovereignty and International Law" – Cambridge University Press, 2017.
5. Yusupov S. "Robototexnika va sun'iy intellekt: huquqiy muammolar" – Toshkent: Fan, 2023.
6. Bandler J. "Cyber Law and Security" – Oxford University Press, 2024.
7. Blacklaws C. "Digital Law and AI Regulation" – London: Routledge, 2025.